

7-sinf ona tili. 1-BSB. (25 ball)

TOPSHIRIQ DIKTANT

Javoblar + yechim

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- diktant matnini imlo qoidalarini hamda husnixatga rioya qilgan holda yozadi;
- tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi;
- matndagi murakkab so'zlarning imlosini eslab, to'g'ri yozadi;
- tovush o'zgarishlarini aniqlaydi;
- fe'lning munosabat shakllarini aniqlaydi;
- omonim (shakldosh) so'zlarni aniqlaydi.

Diktant matni namunasi:

Tasavvur qiling: siz tasviriyl san'at muzeyiga kirdingiz. Polotnolardagi bo'yoqlarni, qiyofalarni o'z ko'zingiz bilan ko'rib, hayajonga tushasiz. Qalbingizni o'zgacha tuyg'ular egallaganini anglab yetasiz.

Tasavvur qiling: musiqa tinglayapsiz. Uning sadolari ancha vaqtgacha qulog'ingizda jaranglab turadi. Bunday kuyni bastalagan kishining iqtidoriga qoyil qolasiz.

Endi tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda mayda harflardan bo'lak hech narsa yo'q. Rang ham, ovoz ham, harakat ham. Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qahramonlar taqdiriga ergashib, ular bilan yashay boshlaysiz. Barchasi sizning hayotingizda sodir bo'layotganday go'yo.

I.Matnni baholash mezonl (10 ball)

Matnni baholash mezonlari (10 ball)	1-2 ta	3-4 ta	5-6 ta	7-8 ta	
Imlo xatolari	6 ball	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball
Tinish belgilari	2 ball	1 ball			
Husnixat	2 ball				
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa	2 ball				
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa	1 ball				
JAMI:	10 ball				

II. Topshiriqlarni baholash mezonlari (15 ball)

1. Ushbu matndan fonetik hodisalarni turiga ko'ra (tushish, ortish, almashish) ajratib yozing. (5 ball)

<i>Tovush ortgan so'zlar</i>	<i>Tovush tushgan so'zlar</i>	<i>Tovush almashgan so'zlar</i>

2. Ushbu parchadan fe'lning munosabat shakllarini aniqlang. (5 ball)

Endi tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda mayda harflardan bo'lak hech narsa yo'q. Rang ham, ovoz ham, harakat ham. Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qahramonlar taqdiriga ergashib, ular bilan yashay boshlaysiz. Barchasi sizning hayotingizda sodir bo'layotganday go'yo.

<i>Zamon shakllari</i>	<i>Shaxs-son shakllari</i>	<i>Mayl shakllari</i>

3. Parchadan asosi omonim bo'lgan so'zlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzing. (5 ball)

Bunday kuyni bastalagan kishining iqtidoriga qoyil qolasiz. Endi tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda mayda harflardan bo'lak hech narsa yo'q. Rang ham, ovoz ham, harakat ham. Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qahramonlar taqdiriga ergashib, ular bilan yashay boshlaysiz. Barchasi sizning hayotingizda sodir bo'layotganday go'yo.

Baholash mezonlari (15 ball)	
1. Tovush o'zgarishlarini aniqlay olishi	5 ball
Berilgan parchadagi tovush o'zgarishlarini aniqlab, turiga ko'ra ajrata olgan bo'lsa –	5 ball
Berilgan parchadagi tovush o'zgarishlarini aniqlab, turiga ko'ra ajratishda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 3 ball
Parchadagi tovush o'zgarishlarini aniqlashda bir talay chalkashliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	2 – 1 ball
2. Fe'ning munosabat shakllarini ajrata olishi	5 ball
Fe'ning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni aniqlay olgan bo'lsa –	5 ball
Fe'ning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni (zamon, mayl, shaxs-son) aniqlashda biroz chalkashlikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 3 ball
Fe'ning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarni aniqlashda talay chalkashlikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	2 – 1 ball
3. Omonim so'zlarni aniqlay olishi	5 ball
Omonim so'zlarni aniqlab, ular ishtirokida gap tuza olgan bo'lsa –	5 ball
Omonim so'zlarni qisman aniqlagan va ular ishtirokida gap tuza olgan bo'lsa –	4 – 3 ball
Omonim so'zlarni o'xshash birliklardan ajrata olmay, chalkashtirib yuborgan bo'lsa –	2 – 1 ball
Jami:	15 ball